



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**CONFLICT-OF-LAWS REGULATION OF CONTRACTUAL
RELATIONS INVOLVING FOREIGN INVESTMENTS IN THE
BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND
PROSPECTS**

Usmonova Kamola Otabekovna

*Tashkent State University of Law, Master’s student of the International
Commercial Law faculty*

E-mail: usmonovakamola05@gmail.com

Abstract. This thesis analyzes the current problems of regulating contractual relations involving foreign investments in the banking system of Uzbekistan from the perspective of private international law. It examines the state of national legislation within the context of the principle of party autonomy, the institute of mandatory rules, and the system of Bilateral Investment Treaties (BITs) for the protection of investments. Based on a comparative study of the experiences of the European Union, the USA, and Asian countries, comprehensive reform recommendations are developed for Uzbekistan in accordance with international standards.

Keywords: banking contract, conflict of laws, foreign investment, party autonomy, mandatory rules, bilateral investment treaty (BIT), ICSID arbitration, international banking law, Uzbekistan, private international law.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O‘zbekiston bank tizimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarni kollizion huquq nuqtai nazaridan tartibga solishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Xalqaro xususiy huquqning tomonlar avtonomiyasi tamoyili, majburiy normalar instituti va investitsiyalarni himoya qilishning ikki tomonlama shartnomalar tizimi (BIT) kontekstida milliy



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

qonunchilikning holati o‘rganiladi. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlari tajribasi qiyosiy o‘rganilgan holda O‘zbekiston uchun xalqaro standartlarga muvofiq kompleks islohot tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bank shartnomasi, kollizion huquq, xorijiy investitsiyalar, tomonlar avtonomiyasi, majburiy normalar, ikki tomonlama investitsiya shartnomasi (BIT), ICSID arbitraji, xalqaro bank huquqi, O‘zbekiston, xalqaro xususiy huquq.

Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga jalb etilishi jarayonida bank tizimi hal qiluvchi funksiyasini bajaradi. UNCTAD ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 800 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, ularning barchasi bank va moliya sektori orqali amalga oshirildi¹. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, 2022-yilgi Yangi O‘zbekiston Strategiyasi doirasida xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan². Biroq bank tizimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi kollizion mexanizmlar hanuz kompleks ilmiy tahlilni talab etadi. Xalqaro bank shartnomalariga nisbatan qaysi davlat huquqi qo‘llanilishi, tomonlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni qanday tartibda hal etish va xorijiy investorning huquqlari qanday kafolatlanishi lozimligi masalalari milliy qonunchilikda qisman tartibga solingan bo‘lsa-da, tizimli yondashuvning mavjud emasligi xalqaro amaliyot bilan o‘zaro borayotgan farqni keltirib chiqarmoqda.

¹ UNCTAD. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. – Geneva: United Nations, 2023. – P. 31. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirishning yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risida. 28.01.2022 yildagi PF-60-son // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Xalqaro xususiy huquqda bank shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni aniqlashning asosiy metodologik bazasi tomonlar avtonomiyasi (“party autonomy”) tamoyilidan iborat. Xalqaro amaliyot prizmasidan olib qaraladigan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqining Rim I Reglamentining 3-moddasi³ tomonlarga shartnomaga tatbiq etiladigan milliy huquqiy tizimni erkin tanlash imkoniyatini beradi. Ushbu tamoyil Xalqaro tijorat shartnomalarida huquqni tanlash bo‘yicha Gaaga tamoyillari 2-moddasida ham mustahkamlangan⁴. Bank shartnomalarida ushbu huquq odatda kredit shartnomasi, qarz kelishuvi yoki sindikatlangan moliyalashtirish shartnomasiga kiritilgan maxsus qoidalar orqali amalga oshiriladi. Biroq tomonlar ixtiyoriy ravishda tanlagan huquq hech qanday cheklovlar ta’siriga tushmaydi deb bo‘lmaydi. Iste‘molchilar huquqini himoya qiluvchi majburiy normalar, bank nazorati qoidalari va ommaviy tartib (“public order”) talablari tomonlar avtonomiyasini bir muncha cheklaydi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1158 – 1164-moddalari⁵ ushbu sohadagi umumiy kollizion qoidalarni belgilagan bo‘lsa-da, bank shartnomalariga xos alohida tartibga solish normalarining mavjud emasligi amaliyotda huquqiy noaniqlikni saqlab qolmoqda.

O‘zbekiston bank qonunchiligida xorijiy investorlar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy normativ bazasini bir nechta hujjatlar tashkil etadi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri⁶ kapital talablari va nazorat

³ Regulation (EC) No 593/2008 of the European Parliament and of the Council of 17 June 2008 on the law applicable to contractual obligations (Rome I) // Official Journal of the European Union. L 177/6. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2008/593/oj/eng>

⁴ Hague Principles on Choice of Law in International Commercial Contracts. – The Hague: HCCH Publications, 2015. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=135v>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 29.08.1996 yildagi 1195-1164-moddalar // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri). 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

tartibotini belgilaydi. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun⁷ investorlarning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, biroq bank shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni aniqlash masalasini bevosita tartibga solmaydi. Shuningdek, mazkur qonunda investitsiya nizolarini Xalqaro investitsion nizolarni hal etish markazi (ICSID)⁸ yoki boshqa xalqaro arbitraj institutlari orqali hal etish imkoniyatini nazarda tutadi. Biroq ushbu normalarning bank shartnomalaridagi muayyan kollizion masalalar bilan bog‘liqligini belgilovchi izchil mexanizm shakllanmagan. Xususan, xorijiy bank kapitalining O‘zbekiston yurisdiksiyasidagi O‘zbekiston hududida ro‘yxatdan o‘tgan tijorat banklari orqali amalga oshirilgan investitsiyalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquq masalasi Markaziy bank yo‘riqnomalari⁹ va Fuqarolik kodeksining umumiy kollizion normalarini bir-biriga moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha xorijiy banklar kapitalini to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish bo‘yicha boshqa asosiy to‘siqlardan biri O‘zbekiston hududida xorijiy banklarning filiallari ochilishining cheklanganligidir. Bunda xorijiy banklar O‘zbekiston hududida o‘z vakolatxonalarini ocha olishi mumkin, biroq vakolatxonalar tabiiyki tijoriy faoliyat bilan shug‘ullana olmaydi. Lekin shunga qaramasdan, bugungi kunda xorijiy banklarning filiallarini ochish bo‘yicha cheklov alohida huquqiy rejimga ega bo‘ladigan erkin iqtisodiy zonalar hududida bekor qilinayotganini yoki ancha yumshatilayotganini kuzatish mumkin.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son (o‘zgartirishlar bilan) // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/24300>

⁸ ICSID Convention (Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States). – Washington D.C.: World Bank, 1965. <https://icsid.worldbank.org/resources/rules-and-regulations/convention/overview>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. <https://cbu.uz/uz/press-center/news/2024/01/annual-report-2023/>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi bank shartnomalarida qo‘llaniladigan huquqni aniqlashdagi asosiy kollizion muammo shartnomaning turli elementlariga turli xil huquqiy rejimlarning tatbiq etilishidan iborat. Masalan, xorijiy banklar tomonidan taqdim etiladigan sindikatlangan kredit shartnomasida qarz beruvchi sifatida Yevropa yoki Osiyo banklari, qarz oluvchi sifatida esa O‘zbekistondagi korxonalar ishtirok etishi mumkin. Bunday holda shartnomaning shakliga nisbatan shartnoma tuzilgan joy huquqi, shartnomaning mazmuniga nisbatan tomonlar tanlagan huquq, bank kafolati shartnomasiga nisbatan esa kafillik majburiyatini bajarish joyi huquqi qo‘llanilishi kelib chiqmoqda¹⁰. Bazel qo‘mitasining bank nazoratiga oid asosiy tamoyillari¹¹ milliy tartibga solish organlari uchun prudensial normalarni belgilab, xorijiy investorlarning bank faoliyatini qanchalik mahalliy nazoratga bo‘ysundirilishi masalasini ham olib chiqqan. O‘zbekiston Respublikasida ushbu ziddiyatni hal etuvchi maxsus kollizion norma yo‘qligi sababli sud va arbitraj amaliyotida bir xil faktik holatlar turlicha huquqiy yechim topmoqda.

Xalqaro bank shartnomalarini tartibga solishda tomonlar tanlagan huquqqa chek qo‘yuvchi majburiy normalar (“overriding mandatory provisions”) instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Rim I Reglamentining 9-moddasi ushbu cheklovchi institutni keng qamrovli tarzda belgilab, majburiy normalarni “mamlakat manfaatini himoya qilish uchun zarur deb hisoblangan normalar” sifatida ta‘riflaydi. Bank sohasida bunday normalar qatoriga kapital yetarliligi talablari, pul-kredit siyosati qoidalari, valyuta nazorati mexanizmlari va soliq majburiyatlari kiradi¹². Bank faoliyati davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinadigan soha hisoblanganligi sababli, ommaviy tartib

¹⁰ Murray A.D. The Regulation of Cyberspace. – 3rd ed. – London: Routledge, 2019. – P. 156–160.

¹¹ Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. – Basel: BIS, 2012. – P. 9–14. <https://www.bis.org/publ/bcbs230.htm>

¹²



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

tushunchasi bank munosabatlarida kengroq talqin etiladi. Masalan, xorijiy kredit shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkalari, jarima mexanizmlari yoki majburiyatlarni bajarish usullari Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial cheklovlarga, kapital yetarliligi talablariga yoki valyuta qonunchiligiga zid bo‘lsa, bunday shartlar ommaviy tartibka mos kelmasligi mumkin. Natijada, xorijiy investor tomonidan tanlangan huquq formal ravishda amal qilsa-da, uning ayrim qoidalari milliy ommaviy tartib asosida cheklanishi yoki bekor qilinishi ehtimoli mavjud. Bu holat Bryussel Ia Reglamentidagi eksklyuziv yurisdiksiya mexanizmiga funksional jihatdan o‘xshash bo‘lib, qo‘llaniladigan huquqni tanlash erkinligini amalda toraytiradi.

Xorijiy investitsiyalarni himoya qilishning ikki tomonlama investitsiya shartnomasi (“Bilateral Investment Treaty” - BIT) mexanizmi O‘zbekiston bank sektoridagi kollizion masalalarni hal etishning muhim xalqaro-huquqiy vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi hozirda 50 dan ortiq davlat bilan ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini imzolagan bo‘lib, ularning aksariyati investitsion nizolarni Xalqaro investitsion nizolarni hal etish markazi orqali ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Nyu-York Konventsiyasi¹³ va UNCITRALning Xalqaro tijorat arbitraji bo‘yicha Model qonuni¹⁴ doirasida qabul qilingan arbitraj yechimlarini O‘zbekiston sudlari tomonidan tan olish va ijro etish mexanizmi 2021-yilgi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonun¹⁵ bilan huquqiy jihatdan ta’minlangan. Biroq amaliyotda BIT shartnomalaridagi investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari va milliy bank nazorati reglamentlari o‘rtasida

¹³ New York Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958. <https://www.newyorkconvention.org/>

¹⁴ UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985, amended 2006). – New York: United Nations, 2008. – P. 8–20. https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida. 16.02.2021 yildagi O‘RQ-674-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Xususan, milliy qonunchilikda valyuta cheklovlari, kapital olib chiqishga qo‘yilgan miqdoriy va boshqa turdagi to‘siqlar xorijiy bank investorlarining BIT himoyasidan foydalanish imkoniyatini amalda cheklaydi. Energetika xartiyasi shartnomasi¹⁶ kabi ko‘p tomonlama investitsiya kelishuvlarida nazarda tutilgan keng qamrovli himoya standartlarining bank sektoriga tatbiq etilishi masalasida turli va bir-biridan farqlanuvchi yondashuvlar shakllangan.

Rivojlangan davlatlar va mintaqaviy tashkilotlar tajribasini o‘rganish O‘zbekiston bank tizimida mavjud kollizion muammolarni hal etishda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Yevropa Ittifoqida Yagona bank qonunchiligi tizimi doirasida bank shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquq masalalari markazlashtirilgan holda tartibga solingan. Ushbu tizim orqali kapital yetarliligi, likvidlik talablari hamda hisobot standartlari yagona huquqiy rejim ostida uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, bu transchegaraviy bank nizolarida kollizion masalalarning yuzaga kelish darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda. AQSh bank tizimida federal va shtat darajasidagi ikki pog‘onali tartibga solish modeli amal qilib, xorijiy investorlar uchun tanlangan shtat huquqining qo‘llanilishini ta‘minlash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilgan. Ushbu model bank shartnomalarida huquq tanlash erkinligini ta‘minlash orqali investitsiya muhitining barqarorligi va huquqiy aniqligini mustahkamlaydi. Osiyo mintaqasida esa Singapur va Gonkong xalqaro moliyaviy markazlar sifatida bank shartnomalariga nisbatan aniq, barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy muhitni shakllantirgan bo‘lib, bu holat xorijiy bank investitsiyalarini muvaffaqiyatli jalb etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Shanxay Hamkorlik

¹⁶ Energy Charter Treaty. Part III: Investment Promotion and Protection – Lisbon, 1994.
<https://www.energycharter.org/process/energy-charter-treaty-1994/energy-charter-treaty/>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Tashkiloti¹⁷ doirasida investitsiyalarni himoya qilishga oid hamkorlik kelishuvlari hamda O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishi bo‘yicha olib borilayotgan muzokaralar doirasidagi majburiyatlari bank sektorida xalqaro huquqiy standartlarga yaqinlashish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarni kollizion tartibga solishning zaif tomonlarini bir nechta asosiy muammo sifatida ko‘rsatish mumkin. Birinchi muammo - bank shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni aniqlashning maxsus kollizion normalarining yo‘qligi. Hozirgi kunda Fuqarolik kodeksining VI bo‘limi bank shartnomalariga nisbatan ham qo‘llanilmoqda, biroq ushbu normalar bank munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan prudensial nazorat mexanizmlarini, majburiy zaxira talablarini hamda banklarning moliyaviy tizimdagi tizimli ahamiyatini yetarli darajada hisobga olmaydi. Ikkinchi muammo xorijiy kompaniyalar tomonidan tanlangan huquqqa nisbatan valyuta nazorati qoidalari va kapital harakati cheklovlarining qo‘llanilish tartibi yetarlicha aniqlashtirilmaganligida namoyon bo‘ladi. Xususan, Markaziy bank tomonidan belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasi normalari hamda konvertatsiya bo‘yicha cheklovlar xorijiy investorlar tomonidan kredit shartnomalarida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishiga amaliy to‘siqlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Amalga oshirilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari asosida O‘zbekiston bank tizimida xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarning kollizion tartibga solinishini takomillashtirish yuzasidan quyidagi konseptual xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga va Fuqarolik kodeksiga bank shartnomalariga nisbatan

¹⁷ ShHT doirasida investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv. Samarqand sammiti yakuniy hujjatlari. – T.: O‘zbekiston, 2022.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

qo‘llaniladigan huquqni aniqlashning maxsus kollizion normalarini kiritish zarur. Ushbu normalar Rim I Reglamentining 3-moddasi va Gaaga tamoyillarining bank munosabatlariga moslashtirilgan versiyasiga tayanib, tomonlar avtonomiyasini tan olishi, ammo prudensial normalarni majburiy qoidalar sifatida belgilashi lozim.

Ikkinchidan, ICSID Konventsiyasida belgilangan xalqaro investitsion arbitraj tizimidan to‘liq foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasida investitsion arbitrajga oid yagona protsessual reglamentni ishlab chiqish va qabul qilish lozim. “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonun asosida bank investitsion nizolari uchun maxsus tezlashtirilgan arbitraj tartibotini (“fast-track proceedings”) joriy etish transchegaraviy nizolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Bazel qo‘mitasining prudensial standartlarini milliy bank nazoratiga to‘liq implementatsiya qilish hamda xorijiy reyting agentliklari xulosalari va bank litsenziyalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlar tarmog‘ini kengaytirish zarur. OECDning davlat tasarrufidagi korxonalar korporativ boshqaruvi bo‘yicha yo‘riqnomalari davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklardagi xorijiy investitsiyalar uchun qo‘shimcha huquqiy kafolatlar asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, ShHT va MDH doirasida bank shartnomalariga nisbatan uyg‘unlashtirilgan kollizion normalar tizimini shakllantirish tashabbusini ilgari surish lozim. O‘zbekistonning JSTga a‘zolik muzokaralari doirasida bank xizmatlarini liberallashtirish bo‘yicha olingan majburiyatlar milliy kollizion normalarni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etadi. Ushbu kompleks islohotlar nafaqat xorijiy investorlar uchun huquqiy xavfsizlik kafolatini oshiradi, balki O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro moliya markazi sifatida rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 29.08.1996 yil. 1158–1164-moddalar // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri). 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son (o‘zgartirishlar bilan) // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida. 16.02.2021 yildagi O‘RQ-674-son // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risida. 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

II. Xalqaro shartnomalar va model qonunlar

1. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. - Basel: BIS, 2012.
2. Energy Charter Treaty. Part III: Investment Promotion and Protection. - Lisbon, 1994.
3. Hague Principles on Choice of Law in International Commercial Contracts. - The Hague: HCCH Publications, 2015.
4. ICSID Convention (Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States). - Washington D.C.: World Bank, 1965.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

5. New York Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958.
6. OECD. Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises. - Paris: OECD Publishing, 2015.
7. Regulation (EC) No 593/2008 on the law applicable to contractual obligations (Rome I) // Official Journal of the European Union. L 177/6. - 2008.
8. Regulation (EU) No 1215/2012 on jurisdiction and the recognition and enforcement of judgments in civil and commercial matters (Brussels Ia). - 2012.
9. ShHT doirasida investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv. Samarqand sammiti yakuniy hujjatlari. - T.: O‘zbekiston, 2022.
10. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985, amended 2006). - New York: United Nations, 2008.
11. WTO. Accession of Uzbekistan. Working Party Report. WT/ACC/UZB/11. - Geneva: WTO, 2025.

III. Boshqa manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. - Toshkent, 2024.
2. UNCTAD. World Investment Report 2023. - Geneva: United Nations, 2023. - 244 p.